



UNIVERSITET SHAHR IQTISODIYOTI DRAYVERI SIFATIDA

UDK: 376.1.332.14(575.1)

Anvarxonov A. J., Ayubov R. R. Universitet shahar iqtisodiyoti drayveri sifatida.
– T.: Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti.

Oliy ta'lim muassasalari (OTM) nafaqat ta'lim beruvchi muassasa, balki inson kapitali, bandlik, innovatsiyalar, xizmatlar bozori va infratuzilmani rivojlantirish orqali shahar iqtisodiy o'sishining muhim drayveri hisoblanadi. O'zbekistonda 2016–2025-yillarda ma'muriy-hududiy birliklardagi OTMlar soni 36 tadan 123 taga oshgan bo'lsa-da, ularning hududiy joylashuvida hududiy markazlarning ustunligi saqlanib qolmoqda. Tadqiqotda viloyat markazi hisoblanmaydigan 19 ta shaharning aholi, yoshlar va talabalar soni, OTMlar mavjudligi hamda hudud markazigacha bo'lgan masofa kabi ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Natijalar Marg'ilon, Angren, Bekobod va Quvasoy kabi aholisi 100 ming kishidan ortiq oliy ta'lim xizmatlariga potensial talab mavjudligini ko'rsatdi. Tahlil asosida yangi OTMlarni hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib joylashtirish, chegaraga yaqin shaharlarda ta'lim eksportini rivojlantirish va kadrlar tayyorlashni hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Material oliy ta'lim va hududiy rivojlanish siyosatini ishlab chiquvchi vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, OTMlar hamda ta'lim sohasidagi investorlar uchun mo'ljallangan.

Nashr uchun mas'ul: B. Xamidov, PhD, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari

Materiallarni to'liq ko'chirish yoki qisman iqtibos keltirishga, shuningdek, jadval va grafiklardan foydalanishga <http://www.imrs.uz> saytiga giperxavola mavjud bo'lgan va/yoki muallifligini ko'rsatuvchi yozuv ilova qilingan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Saytda e'lon qilish uchun 17.08.2026-yilda ruxsat yetildi.

© Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, 2026-yil.

I. OTMLar va hududiy iqtisodiy o'sish

So'nggi yillarda shaharlar bilim, investitsiya, mehnat, infratuzilma va bozorlar jamlanadigan asosiy iqtisodiy o'sish markazlariga aylanmoqda. Zero, korxonalar, malakali mutaxassislar va iste'molchilarning hududiy yaqinligi bozorni kengayishiga, bilim almashinuvini tezlashishiga hamda samaradorlikni oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, transport, uy-joy, kommunal infratuzilma va shahar boshqaruvi yetarli tashkillashtirilmasa, tirbandlik, qimmatchilik va tengsizlik kabi shaharlarga xos muammolar ushbu afzalliklarni yo'qqa chiqarishi mumkin.

Bu jarayonda **oliy ta'lim muassasalari** (OTMLar) inson kapitali, innovatsiya va tarkibiy o'zgarishlarni shakllantiruvchi tayanch institut hisoblanadi. Ular bevosita malakali kadrlarni tayyorlash, bilvosita esa sifatli ish o'rinlari yaratish, ilmiy yondashuvlarni korxonalarga uzatish, startaplar va yangi texnologiyalarni rivojlantirish, talab va infratuzilma investitsiyalarini oshirish orqali shahar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Universitetlarning iqtisodiy ta'siri ular biznes, ilmiy markazlar, investorlar va shahar boshqaruvi vakillari bilan uzviy hamkorlik qilganda kuchayadi. Shu sababli OTMLar faoliyatini faqat talabalar soni yoki ularni moliyalashtirish hajmi bilan emas, **balki sifatli bandlik, mahsuldorlik, texnologik yangilanish, yangi korxonalar va hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga qo'shgan hissasi bilan baholash lozim.** OTMLarni alohida "ta'lim oroli" emas, balki ilmiy tashkilot – OTM – biznes - davlat hamkorligiga asoslangan rivojlanish platformasi sifatida shakllantirish shaharlar barqaror iqtisodiy o'sishining muhim shartidir.

Xorij tajribalari universitetlar chekka va rivojlanayotgan hududlarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ular inson kapitalini rivojlantirish, bandlik va daromadlarni oshirish hamda xizmatlar sektorini kengaytirish orqali hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.


Jumladan, Fransiya tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, Charente-Maritime singari ta'lim darajasi past va ishsizlik yuqori hududlarda yangi universitet ochilishi yoshlarning band bo'lish ehtimolini taxminan 8 foiz punktga, barqaror ishga ega bo'lish imkoniyatini 6 foiz punktga oshirgan, oylik ish haqlarini esa o'rtacha 5 foizga yuqoriroq qilgan.

Yaponiyada 43 ta universitet kampusi va ularga tutash hududlarga oid 13 ta ko'rsatkich bo'yicha o'tkazilgan tahlil kampusning ta'siri dastlab bevosita atrofdagi tutash hududlarda namoyon bo'lishini va vaqt o'tishi bilan butun shaharga yoyilishini ko'rsatgan. Universitet kampuslari shaharning tabiiy urbanizatsiya jarayonini o'rtacha 3,3 baravar tezlashtiradi hamda yangi avtobus bekatlari, temir yo'l stansiyalari va savdo nuqtalarining paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi zanjirli ("domino") jarayonni harakatga keltiradi.

1990-2024-yillarda chop etilgan 37 ta ilmiy tadqiqot va 148 ta empirik natija umumlashtirilgan tahlilga ko'ra, talabalar ehtiyojlarini hisobga olish universitetning hududiy jozibadorligi va foydalanish imkoniyatini o'rtacha 32,6 foizga oshiradi, transport infratuzilmasining rivojlanganligi esa universitet joylashuvining barqarorligini 23,3 foizga oshiradi. Yer narxi va sog'liqni saqlash infratuzilmasi joylashuv sifatiga mos ravishda 42 foiz va 38,7 foiz ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda **207 ta** OTM mavjud bo'lib, ularning **95 tasi Toshkent shahrida** (32 ta davlat, 40 ta nodavlat va 23 ta xorijiy) joylashgan.

Shun bilan birga, oxirgi yillarda hududlar kesimida OTMLar sonining o'sishi kuzatilgan. Jumladan, 2016-2025-yillarda viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi OTMLar soni 36 tadan 123 tagacha ko'tarilgan. OTMLarning hududiy joylashuvi tarkibida markazlarning ustunligi saqlanib qolmoqda: markazlaridagi OTMLar soni 33 tadan 82 taga yetgan. Qolgan shaharlarda 1 tadan 16 taga hamda tumanlarda 2 tadan 25 tagacha o'sish kuzatilgan (1-rasm).




1-rasm. 2016–2025 yillarda OTMLarning hududiy joylashuvi bo'yicha dinamikasi (ma'muriy-hududiy birliklar kesimida)

Manba: Mualliflar hisob-kitoblari.

Mazkur holat OTMLarning yirik markazlardan tashqaridagi shaharlar iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu maqsadda tadqiqot obyekti sifatida viloyat markazlaridan tashqari Nurafshon, Olmaliq, Angren, Bekobod, Ohangaron, Chirchiq, Yangiyo'l, Xonobod, Qo'qon, Quvasoy, Marg'ilon, Shirin, Yangiyer, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'ozg'on, Zarafshon, Kogon va Xiva shaharlari tanlandi. 2025-yilda ushbu shaharlarning 9 tasida jami 16 ta OTM faoliyat yuritib, bu respublikadagi OTMLarning 12,2 foizini tashkil etadi.

II. OTMLar joylashuvi samaradorligi

OTMLarning shaharlar kesimida joylashuvining hududiy samaradorligini baholash maqsadida shaharlarning aholi, yosh aholi va talabalar soni tahlil qilindi. Natijada shaharlar uch guruhga ajratildi: OTMLar soni yetarli bo'lgan shaharlar, OTM tashkil etish uchun ustuvor shaharlar, OTM tashkil etish uchun yetarlicha aholiga ega bo'lmagan shaharlar. Xususan, Marg'ilon, Angren, Bekobod va Quvasoy shaharlari aholisi 100 ming kishidan ortiq bo'lsa-da, talabalar soni 5 ming nafardan kam. Bu esa mazkur hududlarda oliy ta'lim xizmatlariga potensial talab mavjudligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. 2024-yilda shaharlarda aholi va talabalar soni (ming kishi)


Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Aksincha, Yangiyo'l, Zarafshon, Kogon, Ohangaron, Xonobod, Shirin, Yangiyer va G'ozg'on kabi shaharlarda talabalar soni ham, aholi ham nisbatan past.

Qo'qon aholi soni bo'yicha, Chirchiq esa talabalar soni bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, Shahrisabz, Olmaliq va Xiva shaharlarida ham talabalar kontingenti salmoqli darajada shakllangan.

Shu bilan birga, Qo'qon va Chirchiqqa o'xshagan ayrim markaziy shaharlardan OTMlarni ularga yaqin joylashgan ayrim hududlarga bosqichma-bosqich ko'chirish orqali **yirik shaharlardagi talabalar zichligini kamaytirish, narxlar qimmatlashishini oldini olish, oliy ta'lim infratuzilmasidan yanada muvozanatli foydalanish hamda hududlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Masalan, Qo'qonda vaziyatga kelgan konsentratsiyani Marg'ilonga, Chirchiqdagi tirbandlikni Yangiyo'lga ko'chirish imkoniyati mavjud.**

Bundan tashqari, respublika uchun chekka, ammo qo'shni davlatlarning aholi jamlangan hududlariga yaqin hisoblangan shahar joylarida ta'lim eksportni yo'lga qo'yish mazkur shaharlar rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishi mumkin. Bunday hududlarga Shirin, Bekobod, Xonobod va Quva kabi shaharlarni kiritish mumkin.



3-rasm. Aholi soni, hudud markazigacha bo'lgan masofa va OTMlar sonining bog'liqligi

Izoh: pufakchalar hajmining kattaligi aholi sonining ko'pligini bildiradi. Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

III. Takliflar

1. Hududiy ustuvorlik asosida OTMlar ochish uchun litsenziya berish tartibini soddalashtirish. OTM bilan qamrab olinmagan chekka hududlarda OTM va filiallar ochishda moliyaviy hamda infratuzilma talablarini bosqichma-bosqich bajarishga (bino

maydoni, ustav kapitali) ruxsat berish, depozit zaxirasi talabini bank kafolati yoki sug'urta bilan qisman almashtirish. Bu tadbirkorlar uchun kirish to'siqlarini kamaytiradi va chekka hududlarga investitsiya oqimini rag'batlantiradi (*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi*).

Ma'lumot uchun: Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi 403-son qaroriga ko'ra nodavlat OTMlar uchun kamida 2 mln AQSh dollari ustav kapitali, 350 ming dollar depozit zaxirasi va 5 000 kv.m maydon talabi belgilangan.

2. Chegaraga yaqin shaharlarda OTM ochish va ta'lim eksportini rag'batlantirish. Shirin, Bekobod, Xonobod, Quva kabi shaharlarda OTM yoki filiallar tashkil etib, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Afg'oniston fuqarolari uchun alohida kvota asosida hudud ehtiyojiga mos yo'nalishlarda (tekstil, tibbiyot, pedagogika, agrotexnologiya, logistika, IT) maqsadli grantlar ajratish. Mazkur mexanizm hududiy universitetlar raqobatbardoshligini, mahalliy xizmatlar bozori faolligini va "ta'lim eksporti" tushumlarini oshiradi (*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*).

Ma'lumot uchun: mamlakatdagi 24,6 ming xorijiy talabaning 2 917 nafari (23 foizi) qo'shni davlatlar va Afg'oniston fuqarolari hissasiga to'g'ri keladi.

3. Inson kapitali va mehnat bozori integratsiyasi. Kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini hudud ixtisoslashuviga moslashtirish (Navoiyda sanoat, Samarqand va Buxoroda turizm, vodiylar shaharlarida to'qimachilik) hamda talab yuqori sohalarda aynan shu hududlarning o'zida yangi institutlar ochish (*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*).

Ma'lumot uchun: respublika tekstil mahsulotining 37,4 foizi Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida ishlab chiqarilsa-da, hududda bitta ixtisoslashgan institut va ikkita profil fakultet faoliyat yuritadi; Toshkent shahrida esa tekstilning atigi 7,2 foizi ishlab chiqarilishiga qaramay, eng ko'p mutaxassis shu yerda tayyorlanadi.